

CHIRCHIQTONGI

**Toshkent viloyati
Chirchiq shahri
hokimligining
ijtimoiy-siyosiy gazetasi**

**2025-yil, 19-dekabr
JUMA 51-son (10298)**

Kun haqiqati:

**Ahamiyatsiz kasb,
kichkina odam yo'q!
Erakyo ayol
bo'lishidan
qat'iy nazar,
hamma o'z ishini
yaxshi bajarsa,
butun mamlakat
gullab-yashnaydi.**

Indira GANDI

ЭЪТИРОФ – УСТОЗГА ХУРМАТ

Устозларга эътиром кўрсатиш – инсон тарбияси ва жамиятда ҳурмат-иззатга асосланган муносабатнинг муҳим жиҳатларидан биридир. Устозлар ёш авлодга илм бериб, уларнинг дунёқараши ва ҳаётга бўлган муносабатини шакллантиришда беқиёс ўрин тутати. Шу боис уларга ҳурмат кўрсатиш, миннатдорчилик билдириш – шарафли ва юксак инсоний бурчдир.

Шу мақсадда 7-сонли умумий ўрта таълим мактабида "Маърифатга йўғрилган машаққатли йўл" мавзусида маънавий-маърифий тадбир ўтказилди. Тадбирда Чирчиқ шаҳар ҳокими Муроджон

Абдурахимов, Тошкент вилояти Мактабгача ва мактаб таълими бўлими бошлиғи Азамат Камалов, шаҳар ҳокимлиги вакиллари ҳамда "Нуронийлар" Кенгаши аъзолари иштирок этдилар.

Тадбир давомида таълим тизимида кўп йиллар давомида фидойилик билан хизмат қилган, раҳбарлик салоҳияти ва ташаббускорлиги билан эътироф этилган 7-мактаб директори Аширова Мавжуда Якубовна "Халқ таълими фидойиси" кўкрак нишони билан тақдирланди.

Мазкур эътироф устозлар меҳнатига бўлган юксак ҳурматнинг ёрқин ифодаси бўлиб, ёш авлод тарбиясига қўшган муносиб ҳиссалари учун билдирилган чуқур миннатдорчиликдир.



СЕССИЯДА МУҲИМ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМА ҚИЛИНДИ

Жорий йилнинг 17 декабрь куни шаҳар ҳокимлигининг мажлислар залида Халқ депутатлари Чирчиқ шаҳар Кенгашининг навбатдан ташқари сессияси бўлиб ўтди. Сессияга шаҳар ҳокими М. Абдурахимов раислик қилди.

Сессия кун тартибидида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 октябрдаги ПФ-186-сонли Фармони асосида шаҳар ҳокимлиги бошқарув аппарати тузилмаси ва штат бирликларини тасдиқлаш масаласи муҳокама қилинди. Шунингдек, Президент маслаҳатчисининг Чирчиқ шаҳридаги тизимли муаммоларни ҳал этиш, "Ёшлик" маҳалласи инфратузилмасини яхшилаш ҳамда кузқаш мавсумига тайёргарлик кўришга оид топшириқлари ижроси кўриб чиқилди.

Бундан ташқари, маҳаллий бюджетнинг 2025 йил учинчи чораги даромадлар режасидан орттириб бажарилган маблағларни тақсимлаш бўйича қарорга қўшимча киритиш масаласи муҳокама этилди.

Сессия якунида кун тартибидидаги масалалар юзасидан тегишли қарорлар қабул қилиниб, масъулларга аниқ вазифалар белгилаб берилди.

МУҲАНДИСЛИК МАКТАБИ ОЧИЛДИ

Тошкент кимё-технология институти ва "Ўзкимёсаноат" АЖ ҳамкорлигида ташкил этилган "Интеллектуал кимё-технология тизимлари" Илғор муҳандислик мактабининг очилиш тадбири бўлиб ўтди.

Мазкур мактаб Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев раҳбарлигида 2024 йил 20 июнь куни ўтказилган видеоселектор йиғилишида белгиланган вазифалар ижроси доирасида, кимё саноатида таълим-фан-ишлаб чиқариш интеграциясини кучайтириш мақсадида йўлга қўйилди.

Чирчиқ кимё-индустриал технопарки ҳудудида жойлашган мактаб кимё саноати учун замонавий, амалиётга йўналтирилган ва халқаро талабаларга мос муҳандис-технологларни тайёрлашга қаратилган. Икки йиллик таълим жараёнида талабалар саноат корхоналарида реал лойиҳалар ва тадқиқот ишларида иштирок этади.

Мактаб фаолияти кимё саноатида рақамли, экологик ва технологик янгиланишларни жорий этиш, энергия тежамкор ва экологик хавфсиз технологияларни ривожлантиришга хизмат қилади. Бу ерда полимерлар, силикат материаллар, нанокимё, технологик жараёнларни моделлаштириш ва ресурс тежамкор технологиялар бўйича замонавий лабораториялар ташкил этилган.

Лойиҳа доирасида Томск Политехника университети, Россия Кимё-технологиялар университети, Обуда университети ва Милан Политехника университети каби етакчи хорижий олийгоҳлар билан ҳамкорлик йўлга қўйилган.


Илғор муҳандислик мактабининг очилиши Ўзбекистон кимё саноатини модернизация қилиш ва юқори малакали муҳандислар тайёрлаш йўлидаги муҳим қадамдир.



БОЗОРГА БОРДИНГИЗМИ?

Байрам яқинлашгани сари Чирчиқ деҳқон бозори ҳам янги ҳаёт билан нафас олаётгандек туюлади. Дарвозадан киришингиз биланоқ қалбингизга илиқлик улашадиган, кўтаринки кайфият бағишлайдиган байрамона муҳит сизга ҳамроҳ бўлади. Бозор йўлаклари бўйлаб қаторлаштириб қўйилган, турли ўйинчоқлар билан яратилган яшил арчалар, қиш фаслининг эртакнамо қаҳрамони – қорбобо, шунингдек, ўрмон ҳайвонлари тимсоллари бозорга алоҳида жозиба бағишламоқда. Ёрқин чироқлар билан безатилган ранг-баранг неъматларга тўла расталар эса гўё байрам дастурхонининг ўзидай кўзни қувонтиради.

2



Азиз муштарийлар,
газетамизнинг бу
галги сонидида Чирчиқ

(ТАЪЛИМ ЗИЁСИ)

давлат педагогика университетининг
"Таълим зиёси" газетаси 3 ва
4-саҳифада эълон
қилинмоқда. Газета ичидида газета
тарзида чоп
этилаётган мазкур рўзномада
университет ва
талабалар ҳаётидан бериб борилади-
ган лавҳалар ҳамда иқтидорли ёшлар-
нинг ижод намуналари
билан танишишингиз мумкин.

3

4



ЧИРЧИҚ ШАҲАР ПРОКУРОРИ УММАТБЕК АБЛАБЕКОВНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИК ВА ЖИНОЯТЧИЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ БОРАСИДА ШАҲАР АҲОЛИСИГА ЙЎЛЛАГАН МУРОЖААТИ



Ҳурматли Чирчиқ шаҳар аҳолиси,
азиз ватандошлар!

Чирчиқ шаҳрида жиноятларни жиплаш, хавфсиз муҳитни яратиш, криминоген вазиятни яхшилаш борасида бир қатор ишлар амалга оширилаётганлигига қарамасдан айрим турдаги жиноятлар ҳамон содир этилмоқда.

2025 йил 11 ойида Чирчиқ шаҳар ҳудудида содир этилган жами 637 та жиноятларнинг 277 таси олди олиними мумкин бўлган ва 181 таси аниқланадиган жиноятларни ташкил этган бўлса, ушбу даврда 5 та транспорт воситасини олиб қочиш жиноятлари содир этилди.

Жорий йилнинг 11 ойида содир этилган барча транспорт воситасини олиб қочиш ҳолатлари юзасидан ЖКнинг 267-моддаси билан жиноят ишлари қўзғатилиб, жавобгарликнинг муқаррарлиги сўзсиз таъминланди.

Ушбу транспорт воситасини олиб қочиш жиноятларининг келиб чиқиш сабаблари ўрганилганда транспорт

воситаларининг эгалари томонидан ўз автомашиналарини қаровсиз жойларга қўйиш, шахсий мулкни асрашга эътиборсизлик билан қараш, эҳтиёткорлик чораларини кўрмаслик оқибатида содир бўлган.

Шу боис, Сиз азиз юртошларимизга мурожаат йўллашни лозим деб топдим!

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 267-моддаси “Транспорт воситасини олиб қочиш” деб номланиб, унга кўра, ушбу жиноятни содир этганлар беш йилдан йигирма йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Қадрли ҳамшаҳарлар!

Автомашинангизни очик жойда, қорувулсиз ёки қоронғу жойларда қолдирманг, автомашинангизга сигнализация, иммобилайзер, ГПС-трекер каби хавфсизлик воситаларини ўрнатинг, автомобиль калитини ҳатто қисқа муддатда тўхтаган вақтингизда ҳам автомашина ичида қолдирманг, мулкнингизни автотураргоҳларда ёки қўриқланадиган маҳсус жойларда қолдиринг, ижтимоий тармоқларда машинангиз ҳақида (рақам, жойлашув) ортиқча мумкин бўлган жиноятларни олдини олишга ўзингиз ҳақида маълумот берманг, ушбу турдаги жиноятлар жабрланувчиси бўлиб қолманг, кўча-кўйда шубҳали кўринган шахслар ёки машиналарни гувоҳи бўлган заҳотингиз “102” қисқа рақамига кўнғироқ қилиб, содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олишга ўз ҳиссангизни қўшинг.

ЧИРЧИҚ ШАҲАР ФВБ БОШЛИҒИ ФАРХОД РАХМАТУЛЛАЕВНИНГ ЁНҒИНЛАР, ИС ГАЗИДАН ЗАҲАРЛАНИШ ҲАМДА ГАЗ-ҲАВО АРАЛАШМАСИНИНГ ЧАҚНАШИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ЮЗАСИДАН АҲОЛИГА МУРОЖААТИ

Ҳурматли ҳамшаҳарлар ва шаҳримиз меҳмонлари!

Чирчиқ шаҳар ҳудудида ёнғинлар, ис газидан заҳарланиш ҳамда газ-ҳаво аралашмасининг чақнаши билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш мақсадида қатор профилактик тадбирлар амалга ошириб келинмоқда. Шунга қарамасдан, айрим ҳолатларда мазкур турдаги бахтсиз ҳодисалар содир бўлаётгани ачинарли ҳол ҳисобланади.

Жумладан, 2025 йилнинг ўтган 11 ойи давомида шаҳар ҳудудида жами 36 та ёнғин содир бўлди. Ушбу ёнғинлар оқибатида 1 нафар фуқаро вафот этди. Шунингдек, газ-ҳаво аралашмасининг чақнаши натижасида ҳам 1 нафар фуқаро ҳаёти бобуд бўлди.

Таҳлилларга кўра, содир бўлган ёнғинларнинг 27 таси, яъни 75 фоизи аҳоли яшаш хонадонларида қайд этилган. Ёнғинларнинг келиб чиқишига асосан фуқаролар томонидан давлат стандартидан ўтмаган, сертификатга эга бўлмаган ёки қўлбола усулда ясалган электр иситиш мосламалари ҳамда маиший электр жиҳозларидан фойдаланиш сабаб бўлмоқда.

Шунингдек, ис газидан заҳарланиш ва газ-ҳаво аралашмасининг чақнаш ҳолатларига газ жиҳозларидан нотўғри фойдаланиш, дудбўрон, мўрикон ва шамоллатиш тизимларини иситиш мавсуми бошланишидан олдин мутахассислар томонидан кўриқдан ўтказмаслик асосий



омил бўлиб қолмоқда.

Шу муносабат билан муҳим бўлган қоидаларга қатъий амал қилишингизни сўраб қоламан:

Ёнғин тасодиф эмаслиги ва унинг келиб чиқишига кўпинча ўзимиз сабабчи бўлишимизни ёдда тутинг, ёнғин хавфсизлиги қоидаларига доимий амал қилишни кундалик одатга айлантиринг, вояга етмаган ёш болаларни уйда қаровсиз қолдирманг, газ плиталари ва бошқа газ жиҳозларининг жойини ўзбошимчалик билан ўзгартирманг, ёнғин чиқиш хавфи юқори бўлган носоз электр ускуна ва жиҳозлардан фойдаланманг. Газ жиҳозларида носозлик аниқланганда ёки ёнғин билан боғлиқ ҳолатлар содир бўлганда, дарҳол 112 қисқа рақами орқали мутахассисларга мурожаат қилинг.

Хавфсизлик қоидаларига амал қилиш – ҳар бир фуқаронинг ҳаёти ва соғлиғини асраш гаровидир.

БОЗОРГА БОРДИНГИЗМИ?

(Давоми. Боши 1 - саҳифада)

Бу ерда ҳар қадамда байрам нафаси сезилади. Мева-чеваларнинг сероблиги, айниқса, нархларнинг арзонлиги харидорларни янада мамнун этмоқда. Олманинг турли навлари, қизил-пушти анорлар, апельсин, мандарин ва лимонларнинг ёрқин туси, янги узилган помидор ва бодринглар, қовун-тарвузлар қишнинг совуқ кунларида дастурхонларга файз, кўнғилларга қувонч олиб киришга шай турибди. Сотувчилар эса харидорларни очик чеҳра, ширин сўз билан кутиб олиб, гўё маҳсулот билан бирга ҳушқайфият ҳам улашаётгандек.

Энг қувонарлиси, бозорда ноз-неъматлар сероб, нарх-наво эса кўнғилдагидек мўътадил. Мева-сабзавотлар, турли ширинликлар, гўшт маҳсулотлари – барчаси харидорларга мунтазир. Маҳсулотларнинг нархлари ёзилган таблолар узокдан кўзга ташланади. Расталар олдида қизғин савдо устида самимий суҳбатлар, ҳазил-хузуллар авжида. Бозорга кирган одам борки, шошилмайди. Аксинча, байрам олди завқидан, харид жараёнидан қувонч олишга интилади.

Муҳими, бозордаги одамларнинг кайфияти яхши. Юзларда самимий табассум, кўзларда эса умид ва қувонч



жилваланади. Кимдир байрам дастурхонини тўлдириш ташвишида, кимдир яқинлари учун совға танлаш билан банд. Болалар эса безатилган арчалар атрофида ҳайрат билан тўхтаб, байрам мўъжизасини ҳис этмоқдалар.

Чирчиқ деҳқон бозори бу кунларда нафақат савдо-сотиқ масканига, балки байрамолди қувончини улашадиган, одамларни бир-бирига яқинлаштирадиган, қалбларга илиқлик берувчи файзли гўшага айланган. Байрам арафасида Чирчиқ бозорига кирган ҳар бир инсон фақат харидлар билан эмас, балки кўтаринки руҳ, ёруғ кайфият ва унутилмас таассуротлар билан қайтмоқда.

Коррупцияга қарши кураш давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, барча соҳаларда очиклик, шаффофлик ва қонун устуворлигини таъминлаш муҳим вазифа сифатида белгиланган. Шу маънода, Тошкент вилояти Ўсимликлар карантини ва ҳимояси бошқармасида “Биз коррупцияга қаршимиз” шиори остида тизимли ва изчил ишлар амалга оширилмоқда.

РАҚАМЛАШТИРИШ – КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ САМАРАЛИ ТИЗИМ

Хусусан, бошқарма томонидан мавжуд 17 дан ортиқ ташқи иқтисодий фаолият объектлари, ўсимликлар карантини чегара масканлари ҳамда темир йўл станцияларида коррупциявий ҳолатларнинг олдини олишга қаратилган қатъий назорат тартиблари жорий этилган. Ушбу жараёнларда агентликнинг ички назорат бўлими бошчилигида кенг қамровли тарғибот-ташвиқот тадбирлари мунтазам ташкил этиб келинмоқда.

Тарғибот ишлари доирасида тегишли давлат органлари мутахассислари жалб этилган ҳолда семинарлар, давра суҳбатлари ҳамда тушунтириш ишлари ўтказилмоқда. Уларда коррупциявий хатти-ҳаракатларга йўл қўйиш қандай ҳуқуқий, ижтимоий ва маънавий оқибатларга олиб келиши, айниқса, унинг инсон ҳаёти ва жамият тараққиётига салбий таъсири атрофлича ёритиб берилаяпти.

Маълумки, коррупция демократик институтларнинг мустақамланишига жиддий путур етказди, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг таъминланишига тўсқинлик қилади. Энг хавфли жиҳати – у кенг жамоатчиликда давлат ҳокимиятига нисбатан ишончнинг сўнишига сабаб бўлади. Натижада, жамиятда тинчлик, адолат, қонун устуворлиги каби муҳим ижтимоий-ҳуқуқий қадриятлар издан чиқиши мумкин.

Шунингдек, коррупция бозор иқтисодиёти қонуниятларининг бузилишига, яширин иқтисодиётнинг шаклланиши ва ривожланишига замин яратади. Бу эса ўз навбатида, давлат бюджетига жиддий зарар етказиб, иқтисодий барқарорликка салбий таъсир кўрсатади.

Коррупцияни камайтиришда “Электрон ҳукумат” тизимининг ўрни бекиёс экани инobatга олиниб, Тошкент вилояти Ўсимликлар карантини ва ҳимояси бошқармасида хизматларни рақамлаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Инсон омилини камайтириш, ортиқча қоғозбозликка барҳам бериш ҳамда манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш мақсадида замонавий ахборот технологиялари кенг жорий этилмоқда.

Натижада, кўрсатилаётган хизматлар шаффофлашиб, фуқаролар ва тадбиркорлар учун қўлай ва тезкор механизмлар яратилмоқда. Бу эса коррупциявий ҳолатлар келиб чиқиш эҳтимолини кескин камайтиришга хизмат қилмоқда.

Коррупциянинг олдини олиш мақсадида ҳар бир



ташқи иқтисодий фаолият объекти ҳамда ўсимликлар карантини чегара масканларига замонавий видео-кузатув мосламалари ўрнатилган. Ушбу мосламалар орқали карантин инспекторларининг иш фаолияти 24 соат давомида доимий назорат остида олиб борилмоқда.

Бундан ташқари, бошқарма ходимлари ўртасида хизмат ваколатларини суиистеъмол қилмаслик, жамият ва давлат манфаатларини устувор қўйиш, ҳалоллик, садоқат ва хизмат бурчи мавзуларида жамоавий ҳамда яқка тартибдаги мулоқотлар мунтазам ташкил этиб келинмоқда. Бу тадбирлар ходимларнинг ҳуқуқий онги ва маънавий масъулиятини оширишга хизмат қилади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, “Биз коррупцияга қаршимиз” шиори фақатгина даъват эмас, балки ҳар бир ходим фаолиятида устувор тамойилга айланиб бораётгани қувонардир.

Очиқлик, шаффофлик ва қонун устуворлигига асосланган бундай ёндашув эса соҳада сифатли хизмат кўрсатиш, фуқаролар ишончини мустақамлаш ва жамият тараққиётига муносиб ҳисса қўшишга хизмат қилади.

Мухаммадрасул МАҲАМАДАМИНОВ,
Тошкент вилояти Ўсимликлар карантини ва
ҳимояси агентлиги “ЧИРЧИҚ ТИФ” мудири,
Аҳмаджон СОАТАЛИЕВ,
инспектор

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

UNIVERSITET
GAZETASI

12-son

Gazeta ichida gazeta

TA'LIM ZIYOSI

YETUK OLIM VA RAHBAR



Ilm ham fizika qonunlariga o'xshaydi. Unda harakat bor, kuch bor va aniq yo'nalish mavjud. Ana shu yo'nalishni belgilay oladigan shaxslar jamiyat taraqqiyotining markazida turadi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori – G'afurjon Isroilovich Muhamedov shunday insonlar sirasiga kiradi. U ilmni hayot mazmuniga, ma'rifatni esa taqdir yo'liga aylantirgan, tafakkuri bilan ta'lim kelajagini belgilab berayotgan zabardast olim va zamonaviy rahbardir. Kimyo fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi unvoni sohibi bo'lgan bu fidoyi inson nafaqat ilm sohasida, balki mamlakat oliy ta'lim tizimi islohotlarida ham o'zidan mustahkam va bardavom iz qoldirib kelmoqda.

1946-yil 20-dekabrda Toshkent shahrida dunyoga kelgan G'afurjon Muhamedov bolaligidanoq ilmga chanqoq, bilimga intiluvchan, izlanishdan charchamaydigan shaxs sifatida shakllandi. Uning ilm-fanga bo'lgan muhabbati kelajakdagi buyuk yutuqlarining poydevoriga aylandi. Toshkent davlat universitetining fizika fakultetini tamomlagan yosh mutaxassis o'z bilim va salohiyatini yanada mukammallashtirish maqsadida Moskvadagi L.Y.Karpov nomli fizika-kimyo ilmiy-tekshirish institutida tadqiqot olib bordi. 1991-yilda Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, kimyo fanlari doktori ilmiy darajasiga erishdi.

Olimning ilmiy merosi salmoqli va serqirradir. Polimer kimyosi, ekologik muammolar, agrosanoat sohasidagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan fundamental va amaliy tadqiqotlar, qator monografiyalar, 250 dan ortiq ilmiy maqola hamda o'nga yaqin ixtiro va mualliflik guvohnomalari uning fan taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini yaqqol namoyon etadi. Uning ilmiy izlanishlari nafaqat nazariy jihatdan, balki ishlab chiqarish va amaliyot uchun ham katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Fan arbobining rahbarligi ostida 10 dan ortiq fan doktorlari, 15 ga yaqin fan nomzodlari yetishib chiqdi va ilmiy natijalari bilan yurtimizning ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Bugungi kunda professor G'afurjon Muhamedovning nomi shahrimiz nomi bilan chambarchas bog'liq. Bir paytlar harbiylar va sanoat shahri sifatida tanilgan Chirchiq so'nggi yillarda ilm-ma'rifat, ta'lim va ziyolilar maskaniga aylanib ulgurdi. Bu tarixiy o'zgarishlar zaminida uning strategik fikrlashi, qat'iyyati va kelajakni ko'ra bilish salohiyati mujassam.

Hikoyamiz qahramoni rektorlik lavozimiga tayinlangan ilk paytlardanoq Chirchiq shahrini ziyolilar shahriga aylantirishni maqsad qilgan edi. Shu bois qisqa vaqt ichida oliy ta'lim muassasasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish, raqamli va elektron ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Raqamlashtirilgan baholash tizimi, elektron darsliklar, innovatsion o'quv platformalari va yangilangan ta'lim standartlari universitet hayotining ajralmas qismiga aylanib, ta'lim jarayonini

mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.

Olimning kuyunchakligi, tashabbuskorligi tufayli oliygohga fan nomzodlari, professor-o'qituvchilar ishga taklif etilib, salohiyatli jamoa shakllantirildi. Individual yondashuv asosida xalqaro o'qituvchilarni tayyorlash, qo'sh mutaxassislarni yetishtirish ishlari olib borilayotgani ham erishilgan yutuqlarning yana bir ko'rinishidir.

Shuningdek, uning tashabbusi bilan joriy etilgan Pedagogik ta'lim innovatsiya klasteri oliygohning ilmiy-ta'lim asoslarini tubdan yangiladi. Ushbu klaster fan, ta'lim va amaliyotni uzviy bog'lab, yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun qulay, ilhomboxsh muhit yaratdi. Doktorlik va falsafa doktori dissertatsiyalarini tayyorlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, ilmiy maktablarni shakllantirish aynan shu tizim orqali yangi bosqichga ko'tarildi.

G'afur Muhamedov ochiqlik va adolatni asosiy qonun deb biladi. U talabalarni universitet hayotining faol ishtirokchisi sifatida ko'radi va ularni ilmiy, ijtimoiy va madaniy hayotga faol jalb etishni ustuvor vazifa deb biladi. Yoshlar bilan ochiq muloqot qilish, ularning tashabbus va takliflarini qo'llab-quvvatlash ish uslubining asosiy jihatlardan biriga aylangan. 2025-yilda talabalar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlar buning yorqin isboti bo'ldi. Unda talabalarining muammolari tinglandi, aniq vazifalar belgilandi va ijro uchun mas'uliyat kuchaytirildi.

– Universitetimiz – bu faqat bilim beriladigan maskan emas, balki shaxs kamoloti, mustaqil fikr va yuksak ma'naviyat shakllanadigan dargohdir, – deydi universitet rektori. – Biz talabalarimizni zamonaviy bilimlar, ilmiy izlanishlar va milliy qadriyatlarga tayangan holda yetuk mutaxassis etib tayyorlashni o'z oldimizga maqsad qilganmiz. Aziz talabalar! Sizlardan faollik, tashabbuskorlik va doimiy izlanishni kutib qolamiz. Har biringiz o'z oldingizga katta maqsad qo'yib, universitet imkoniyatlaridan to'liq foydalaning. Biz esa sizlarning har bir yutug'ingizga hamkor va tayanch bo'lamiz. Birgalikda yurtimiz kelajagi uchun munosib kadrlar yetishtirish yo'lida mehnat qilamiz.

G'afurjon Muhamedov ta'lim va tarbiyani bir butun, uzviy tizim sifatida ko'ra oladigan rahbardir. U milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalarni uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni ma'nan yetuk, chuqur bilimli, mustaqil fikrlay oladigan

va raqobatbardosh mutaxassislar etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Universitetning xalqaro nufuzi yil sayin oshib bormoqda. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari, xalqaro ilmiy loyihalar, akademik almashuvlar universitetni jahon ta'lim makoniga yanada yaqinlashtirmoqda.

Suhbat asnosida gazeta o'quvchilariga aytar so'zingiz, degan savolimizga shunday javob berdi:

– Matbuot – jamiyatda fikr va ma'rifatni shakllantiradigan eng faol qatlam. U nafaqat axborot manbai, balki jamiyatning oynasi, xalqning ovozidir. Shu bois, "Chirchiq tongi" va Chirchiq davlat pedagogika universitetining gazeta ichida gazetasi – "Ta'lim ziyosi" sahifalarida yoritilayotgan har bir maqola, har bir tahlil orqali haqiqat, xolislik va taraqqiyot g'oyalari qaror topmoqda. Aziz mushtariylar, sizlarni befarq bo'lmaslikka, hayotda bo'layotgan yangiliklarga faol munosabat bildirishga, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy masalalarga ongli yondashishga chorlayman. Fikr va mulohazalaringiz bilan gazetamiz faoliyatida faol ishtirok eting, chunki matbuot kuchli bo'lsa – jamiyat ham taraqqiy etadi.

Xulosa qilib aytganda, G'afurjon Isroilovich Muhamedov – kimyo fanlari sohasida yetuk olim, ko'p yillik tajribaga ega pedagog, strategik fikrlaydigan va fidoyi rahbar sifatida Chirchiq davlat pedagogika universiteti hamda mamlakat oliy ta'lim tizimi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yuksak shaxsdir.

Qariyb yarim asrdan buyon uning pedagogika sohasida erishgan yutuqlari va mehnati munosib baholanib, "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" unvoni, "Mehnat shuhrati" ordeni, "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik va "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Ushbu qutlug' fursatdan foydalanib, yurtimizning faxri bo'lgan fidoyi olim va fidoyi rahbari tabarruk yoshlari bilan samimiy qutlaymiz. U kishiga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt, el-yurt ravnaqi yo'lidagi sharafli ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar, ilmiy va ijodiy faoliyatida yangi zafarlar tilaymiz.

Saodat MUSAYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

BUGUNGI BILIM – ERTANGI TARAQQIYOT

Mamlakatimizda amalga oshrilyotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida pedagogik ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning bilimga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Bugungi kunda qo'lga kiritilgan bilimlar, ertangi kunda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bilim, insonga dunyoni anglash, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni yaratish imkonini beradi. Bilimli inson, o'z hayotini yaxshilash bilan birga, jamiyatga ham foyda keltiradi. Iqtisodiy taraqqiyot, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ijtimoiy muammolarni yechish – ularning barchasi bilimga asoslanadi.

Ta'lim, bilim olishning eng muhim vositasidir. Sifatli ta'lim, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirib, ularni ertangi

kunning muammolarini yechishga tayyorlaydi. Shuning uchun, ta'lim sohasiga investitsiya kiritish, kelajakka investitsiya kiritish demakdir. Zamonaviy ta'lim tizimi, nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni, mustaqil izlanishni va ijodiy yondashuvni rivojlantirishi lozim.

Bugungi kunda, bilim va axborot, iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateliga aylanmoqda. Bilim iqtisodiyotiga asoslangan davlatlar, yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali, jahon bozorida o'z o'rnini topishga muvaffaq bo'lmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda sifatni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga moslashishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham bugungi kunda kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etilib, o'quv rejaları va dasturlari zamonaviylashtirilmoqda. Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada viloyat maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda kafedra laboratoriyalari tashkil etilib, bulg'usi pedagog talabalarni bevosita amaliyotga jalb qilish samarali yo'lga quyilgan.

Iqtidorli talabalarni moddiy

va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida universitetda bir qator maxsus stipendiyalar, tanlovlar va grant dasturlari ham joriy etilgan bo'lib, bu dasturlar orqali talabalarni moddiy rag'batlantirish hamda yoshlar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga erishilmoqda.

Shuningdek, "Besh muhim tashabbus" doirasida turli festivallar tashkil qilini, ushbu festivallar doirasida talabalar o'rtasida turli tanlov va musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. Tanlovlarda faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar esdalik sovg'alari va pul mukofotlari orqali moddiy rag'batlantiriladi.

Pedagogik ta'lim sohasida olib borilyotgan samarali islohotlar natijasida univeristitet nafaqat respublika oliy ta'lim muassasalari orasida, balki xorijiy oliy ta'lim muassasalari orasida ham o'z

o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Universitetda zamonaviy axborot texnologiyalari qulay elektron ta'lim platformasi joriy etilishi natijasida talabalarning bilim olish imkoniyatlari oshmoqda. Elektron kutubxonalar, virtual o'quv platformalari, raqamli ta'lim resurslari orqali o'quv jarayoni yanada interaktiv va ochiq shaklda o'tkazilmoqda.

Mana shunday islohotlar natijasida pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislar sifatida shakllanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Muxlis SAFAROV,
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

KELAJAKNI
TARBIYALAYDIGAN TIZIM

Bugungi globallashuv davrida ta'lim va tarbiya masalasi nafaqat alohida davlatlar, balki butun jamiyat kelajagini belgilab beruvchi strategik omilga aylandi. Ayniqsa, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida shakllangan ta'lim-tarbiya tizimi ko'p yillik tajriba, ijtimoiy mas'uliyat va inson qadriyatlariga tayyanganı bilan ajralib turadi.

G'arbiy Yevropada ta'lim jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi mustahkam poydevor sifatida qaraladi. Bu yerda u faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, shaxsni har tomonlama kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishni maqsad qiladi. Maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda bola shaxsiga hurmat, uning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish ustuvor tamoyil hisoblanadi. Xususan, boshlang'ich sinflarda og'ir nazariy ma'lumotlardan ko'ra, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. O'yinlar, guruhıy ishlar va muloqot orqali o'quvchilar jamoada o'z o'rnini anglashga, hamkorlik qilishga o'rganadilar. Bu esa kelgusida ularning ijtimoiy faolligi oshishiga zamin yaratadi.

Ushbu mamlakatlarda tarbiya ta'limdan ajralmas jarayon sifatida talqin etiladi. U orqali bolalarda halollik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va mas'uliyat kabi yuksak insoniy fazilatlar shakllantiriladi. Inson huquqlari, erkin fikrlash va o'zgalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyalari tarbiya jarayonining markazida turadi. Maktablarda turli madaniyat va qarashlarga nisbatan hurmat ruhida ta'lim berishga katta ahamiyat beriladi. Bu ko'p millatli jamiyatda tinch-totuv yashashning muhim shartlaridan biri sanaladi. O'qituvchi esa bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, maslahatchi va tarbiyachi sifatida faoliyat olib boradi.

Shuningdek, o'qituvchining jamiyatdagi mavqei yuksak bo'lib, uning mehnati munosib baholanadi. Pedagoglar muntazam ravishda malaka oshirib, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirib boradilar. Ulardan fanni chuqur bilish bilan birga, psixologik

tayyorgarlikka ega bo'lish, har bir o'quvchi bilan individual ishlash va qiziqish uyg'ota olish talab etiladi. Shu bois dars mashg'ulotlari ko'pincha munozara, loyiha va amaliy ishlar shaklida tashkil etiladi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivoji ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va interfaol vositalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Bu o'quvchilarga mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalar inson omilini siqib chiqarish vositasi emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yanada boyituvchi samarali yordamchi sifatida qaraladi. Ana shu uyg'unlik G'arbiy Yevropa tajribasining o'ziga xos jihatini namoyon etadi.

Ta'limda tenglik masalasi ham ushbu mamlakatlar siyosatida muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli yoki jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, har bir bola sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan dasturlar va inklyuziv ta'lim tizimi keng joriy etilgan. Bu yondashuv jamiyatda adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi ta'lim-tarbiya tizimi inson qadriyatları, zamonaviy bilim va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligiga asoslangan. Bu tizim shaxsni har tomonlama rivojlantirish va uni jamiyat hayotiga faol tayyorlashni ko'zlaydi. Shu bois mazkur tajriba bugungi kunda ko'plab davlatlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Zero, bilimli va tarbiyali avlod har qanday jamiyatning eng katta boyligidir.

Nargiza PERDESHEVA,
Dilnoza NORQULOVA

Zamonaviy mehnat bozori pedagoglarning professionalligi, madaniyati va shaxsiy xususiyatlariga yuqori talablar qo'ymoqda. So'nggi yillardagi ta'lim islohotlari kelajak pedagoglarining zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu kasbni egallashga rag'batlantira oladigan ta'lim muhiti talab qiladi.

TA'LIM MUHITI VA KASBIY
KOMPETENSIYALAR

Chirchiq davlat pedagogika universitetidagi ta'lim muhiti pedagogik texnologiyalarni, raqamli resurslarni amaliyotga joriy etish, ta'lim mazmunini yangicha loyihalash, talabalarning mustaqil ishlari hajmini oshirish, ijodiy va muammoli topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish kabi jihatlar bilan izchil bog'lanmoqda.


Insonning ijtimoiylashuvi, shu jumladan uning ta'lim olishi ko'p jihatdan uning individual dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadigan muhit bilan belgilanadi. Ijtimoiy hayot murakkablashib borayotgan, ma'rifiy muhit texnik va texnologik jihatdan jadallashayotgan sharoitda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish muhimdir. Bunday muhit talabalarga ta'limiy, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlari hamda qiziqishlarini qondirish va rivojlantirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Zamonaviy universitetlarda ta'lim muhitiga evolyutsion yo'l bilan erishilyotganligi quvonarli. Fanlararo integratsiyadan ta'lim muhitini yaratishga intilish talaba shaxsini rivojlantirish va uning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan. Demak, talabalarda kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik vositasi ham aynan fanlararo bog'liqliklardir. Oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarda o'z o'rnini topishda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishgan. Ta'limdagi fanlararo integratsiyaning ahamiyati shundaki, u jamiyatda real ravishda kechayotgan integratsion jarayonlarning o'ziga xos analogidir. Fanlararo hamkorlik o'rganilyotgan obyektni yangi munosabatlar tizimida ko'ra olishga, bilimlardan erkin va dinamik foydalanishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonini, ya'ni fanlararo bog'liqliklardan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tahlil qilish natijasida fanlararo bog'liqliklarga xos bo'lgan ikki tomonlama xarakter aniqlangan. Bu hodisaning har ikki tomoni o'quv fanlari mazmunidagi bog'liqliklarni ham, ko'nikmalar va faoliyat usullarini rivojlantirish metodlari o'rtasidagi bog'liqliklarni ham qamrab oladi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim standartlari nuqtai nazaridan fanlararo bog'liqliklar – bu faqat bilimlar tizimini shakllantirish vositasigina emas, balki umumlashtirilgan faoliyat usullarini shakllantirish vositasidir. Fanlararo bog'liqliklarni egallash ko'magida ta'lim jarayonida talabalarning umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan qobiliyatlar va ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu kompetensiya bilim, tajriba, faoliyat turlari va harakatlarni insonning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli sohalarida keng maqsadlarda qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Fanlararo bog'liqlik ko'magida shakllangan kompetensiyaning noyobligi shundaki, inson ma'lum bir vazifani hal qilish yoki maqsadga erishish uchun o'zida bor barcha bilim, ko'nikma va tajribalarni qanchalik maqsadga muvofiq, chuqur va keng qo'llay olishi, ularni uyg'unlashtira olishi va integratsiya qila olishi bilan belgilanadi.



O'qituvchining qobiliyati, mayllari va individualligini ochib berishi, uni o'quv faniga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi, ta'limning faol va interfaol usullari jarayonida o'z "Men"ini namoyon etish imkoniyatlarini yaratishi, shu jumladan universitet muhiti doirasida – mana shular fanlararo integratsiyalashgan ta'limining mazmunini tashkil qiladi.

Mehnat bozori doimiy ravishda yangi sifatlarni talab qiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimini talabalarda fuqarolik va madaniy identiklik, maqsadga intilish, tashkiliylik, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni, shuningdek, doimiy o'zini o'zi belgilash, o'zini o'zi o'qitish va o'zini amalga oshirish ehtiyojlarini samarali va texnologik usullar bilan shakllantirish yo'llarini izlashga undaydi. Zamonaviy milliy ta'lim paradigmasi barcha ta'lim darajalarida amalga oshirishning mazmuni va prinsiplari bo'yicha jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu o'zgarishlar shaxsning madaniy va fuqarolik identifikatsiyasiga yo'naltirilgan.

Shunday qilib, ta'lim mazmuniga kiritilyotgan fanlararo bog'liqliklar uning muammolashtirilishini va yangiligini kuchaytirdi. Ilgari ma'lum bo'lgan materialni yangicha mazmunda ochib berdi. Avval o'zlashtirilgan bilimlarni aktuallashtirib, ularni yangi bilimlar bilan yagona tizimga birlashtirdi. O'zaro yaqin kurslar o'rtasidagi bog'liqliklar esa hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga, masalan, sabab-oqibat aloqalarini ochib berishga yordam beradi. Barcha fanlar bo'yicha bilimlarning amaliy foydasi yanada ravshan bo'ladi.

Fanlararo bog'liqliklar o'quv materialı mazmunining umumlashtiruvchi xarakterini kuchaytiradi, bu esa ta'lim metodlarida ham, tashkiliy shakllarda ham o'zgarishlar talab qiladi. Ta'kidlash kerakki, bitiruvchi – talabaniy kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradigan vaziyat faqat o'quv reja va o'qitish metodlari emas, balki universitet muhiti hamdir. Bu muhit talabaniy ta'lim davridagi hayotining bir qismiga aylanadi.

Shu bois, Chirchiq davlat pedagogika universiteti ta'lim muhitini yaratish orqali kelajak o'qituvchilarini tayyorlashga jiddiy kirishgan.

Jamshid ALIMQULOV,
o'qituvchi

**Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining
Axborot xizmati tomonidan tayyorlandi.**

Юқори тезлик билан ўзгараётган замонда яшар эканмиз, бу даврда тенглик ва тенгсизлик, имкониятлилик ва имкониятсизлик, чорасизлик ва қийинчилик каби вазиятларга барчамиз дуч келишимиз мумкин. Бундай вазиятларда қаерга мурожаат қилиш кераклигини, қаердан ёрдам олишни билмаслик эса инсоннинг ҳолатини янада мураккаблаштиради.



ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР ВА ЖАМИЯТДАГИ ТЕНГЛИК

Ҳар бир оғир ижтимоий вазиятга тушган инсоннинг ижтимоийлашувини таъминлаш, уларга бериладиган ёрдамларни тўғри етказиш эса авваллари ҳар хил ташкилотларга бириктирилган эди. Бу эса, ўз навбатида, фуқароларга қийинчилик туғдирган. Давлатимизда ижтимоий ҳимояга муҳтож инсонларни жамият билан боғлаш, ижтимоийлигини таъминлаш мақсадида бир қатор вазифалар амалга оширилди. Уларнинг ичида энг аҳамиятли ва эътиборга молик бўлган ўзгариш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 1 июндаги “Аҳолига сифатли ижтимоий хизмат ва ёрдам кўрсатиш ҳамда унинг самарали назорат тизимини йўлга қўйиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони билан Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг ташкил этилганлиги бўлди.

Агентлиkning асосий вазифаси Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолини қўллаб-қувватлаш, уларни ҳуқуқий ҳимоя қилиш, давлат томонидан кафолатланган ижтимоий хизматларни кўрсатиш ва ижтимоий реабилитация қилиш орқали шахсий ва ижтимоий қийинчиликларни енгишда, жамият билан интеграция жараёнларини амалга оширишга қаратилган профессионал фаолият ҳисобланади.

Оғир ҳаётий вазиятга тушиш хавфи остида бўлган шахслар ва oilаларга ижтимоий хизмат ва ёрдамни маҳалла даражасида ташкил этиш, уларни ўзи яшаётган муҳитдан ажратмаслик, ижтимоий ёрдамларнинг барқарорлиги, ҳуқуқларини доимий кафолатлаш, шаффофлик орқали аҳолининг ижтимоий сиёсатни шакллантиришдаги иштирокини ошириш, ижтимоий хизматларни олишда аҳоли эҳтиёжларини инобатга олиш орқали уларнинг манзиллилиги ва самарадорлигини ошириш борасида ҳар бир маҳаллаларда ижтимоий ходим лавозимлари жорий этилди.

Янги тизим негизида халқнинг ижтимоий ҳимоячиси сифатида кириб келган ижтимоий ходимлар ҳақиқий муҳтож инсонларга давлат томонидан кафолатланган ижтимоий ёрдамларни кўрсатиш, уларни қўллаб-қувватлашнинг самарали усулларини тадбиқ этиб жамиятга соғлом муҳитни олиб киришга ёрдам бериб келмоқда. Маҳаллада ишлайдиган комплекс ижтимоий хизмат кўрсатувчи ходимлар аҳолининг ижтимоий хизмат ва ёрдамлар, шунингдек, ижтимоий иш фаолияти ҳақида хабардорлигини ошириш, муҳтож шахсларга хизмат ва ёрдам кўрсатишни ташкил қилиш, уларнинг мурожаатига асосан, кечиктириб бўлмайдиган ҳолатларда ўз ташаббуси билан ҳамкорликда “ижтимоий иш”ни очиш ҳамда индивидуал ижтимоий хизматлар режасини тузиш учун дастлабки баҳолаш ўтказишни амалга ошириш орқали ижтимоийлашувини таъминлашмоқда.

Жамиятимиздаги ҳар бир шахсга индивидуал ёндашув, oilани комплекс ўрганиш ва уларга профессионал хизмат кўрсатиш ижтимоий ходимларнинг энг асосий вазифалари ҳисобланади. Бугунги кунга келиб жами ижтимоий хизматлар сони 121 тага етиб, буларнинг барчаси инсон учун, уларнинг ҳаётий қийин вазиятларини енгишлари учун хизмат қилмоқда.

Инновацион ёндашувларни ташкил этиш, юқорида кўрсатиб ўтилган хизматларнинг сифатлилигини ошириш учун чет эл давлатлари билан ҳамкорликда малака ошириш ишлари амалга оширилмоқда. Яхши натижаларга эришган ижтимоий ходимлар ривожланган давлатларга малака ошириш учун юборилмоқда.

Бугунги кунда ижтимоий соҳадаги ўзгаришлар тубдан янгиланиб, сайқалланиб бормоқда. Ҳар бир шахсга ёши, ирқи, жинси ва келиб чиқишдан қатъи назар, сифатли ижтимоий хизматлар кўрсатилиб, жамиятдан ажратмаслик, адаптация жараёнларида кўмак бериш, бу орқали ижтимоийлашув таъминланаётганлиги бизнинг ривожланган давлатларга тенглашишимизга кенг йўл очиб бермоқда.

Мен ижтимоий ходим сифатида ҳозирги кунда аҳолининг эҳтиёжманд қатламига профессионал хизмат кўрсатиб, уларнинг ижтимоийлашувига ўз ҳиссамни қўшаётганим – кўксимда фахр туйғусини уйғотади. Ижтимоий соҳа мутахассиси бу ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг бир бўлаги эканлигимдан фахраланаман.

Моҳидил УМАРАЛИЕВА,


“Маданият” МФЙ да

комплекс ижтимоий хизмат кўрсатувчи ходим

ҲОРДИҚ ВАҚТИ

Ирода йўқжойда йўл ҳам йўқ

Бернард Шоу



МУРУВВАТЛИ ОТА-ОНАЛАРДАН ЭЗГУ ТАШАББУС

Шаҳримизда жойлашган 8-сонли давлат мактабгача таълим ташкилоти узоқ йиллардан буён минглаб болажонларнинг маънавий-ахлоқий ривожланишига хизмат қилиб келмоқда. Ҳозирги кунда мазкур муассасада 12 та гуруҳ фаолият юритиб, 350 дан зиёд тарбияланувчи болаларга муносиб шароит яратилган.

Бироқ ташкилот биноси 1983 йилда фойдаланишга топширилгани боис, вақт ўтиши билан айрим жойларида таъмирга муҳтож ҳолатлар вужудга келган эди. Хусусан, бинонинг том қисмидаги носозликлар сабабли ёмғирли кунларда баъзи хоналарга сув томиши ҳолатлари кузатилиб, бу болалар ва устозлар учун маълум даражада ноқулайлик туғдирарди.

Муаммони ҳал этиш мақсадида ташкилот маъмурияти томонидан зарур чоралар кўрилди. Энг эътиборлиси, бу ишда тарбияланувчи болаларнинг саховатпеша ва меҳрибон ота-оналари фаол иштирок этиб, муаммони бартараф этишга амалий ёрдам кўрсатдилар. Жумладан: Е.Янбулатова, Д.Эгамбердиев, Р. Бектемиров ва Х.Салоиди-

новлар томни таъмирлаш ишларини амалга оширишда ҳомийлик билан қўллаб-қувватлаб, ташкилотдаги болалар учун янада яхши шароит яратилишига ўзларининг муносиб ҳиссасини қўшдилар.

Носозликлар бартараф этилди, ёмғир суви ўтишига қарши қўшимча қатламлар ётқизилди, айрим эски конструкциялар янгиланди. Бу орқали гуруҳ хоналари яна хавфсиз ва қулай ҳолатга келтирилди.

Муассаса маъмурияти мазкур эзгу иш учун ота-оналарга чуқур миннатдорлик изҳор этади.

– Ушбу ташаббус орқали ҳомийларимиз болаларга бўлган самимий меҳри ва масъулиятини амалда намойиш этдилар. Уларга муассасамиз номидан чуқур миннатдорчилигимизни билдирамиз, – деди 8-ДМТТ директори М.Шамахсудова.

Мактабгача таълим ташкилотида амалга оширилган бу каби хайрия ишлари болалар келажагига қаратилган энг катта сармоядир.

Наргиза НАЗАРОВА,
8-сонли ДМТТ мусиқа ўқитувчиси



Курбон акани яхши билмайман. Кўпчилик дўстларим ҳам деярли шу фикрда. Билганим, кўришганда «Дарсингни қилдингми?» деб сўрайди. Бу унинг «бола-чақанг тинчми, ишларинг яхшими, кечаги ишларинг битдимми», дегани. Хайрлашаётиб ҳам, бўпти яхши бор, соғу саломат бўл, демайди. «Дарсингни қил!» дейди. Яна у киши ҳақида билганим, бировдан ёки унинг қилган хайрли ишидан хурсанд бўлиб кетса, «Боғингга булбул!» деб ҳайқиради...

Курбон ака билан бирга Фарғонага борадиган бўлиб қолдик. Машинага ўтиргач, мезбон сифатида, фалон-фалон жойларда бўламиз, фалон-фалон акаларни кўрамиз, дея унга гапира кетдим. Водийнинг энг зўр жойларига олиб бориб, оғзини бир очириб кўяй.

— Сен ўзинг Қашқадарёда бўлганмисан? — сўради ака.

— Бормаганман.

— Сени ўзим олиб бораман, — Курбон ака завқ-шавққа тўлиб сўзлашга киришди. — Қашқадарёжонимда менинг қишлоғим бор. Қишлоқжонимда эса қайрағочим бор — отажоним эккан! Тепаликда, қишлоқ кўринмасдан бурун у кўзга ташланади. Мени кўриши билан япроқларини ҳилпиратиб, «келяпти-келяпти» дегандай бўлиб туради. Шундай бориб қучоқлайман, «Омонмисан, отам эккан қайрағоч» деб ўпаман! У ҳам шохлари, новдалари билан мени қучгандай, елкамга қоққандай, япроқлари билан юзларимни сийпалагандай бўлади! Оҳ, менинг қайрағочжоним! Боғингга булбул!

Биласанми, отам оламдан ўтган йили таътилга борсам, қайрағоч қуриб қолибди! Шохларида — тириклигидан нишона йўқ! Йиғладим! Тўлиб-тўлиб йиғладим — отам ўлганда ҳам бунчалик йиғламагандим! Укам юпатди, опам юпатди, ўртоқларим юпатди...

Остини қовлаб, бир ой сув қуйдим! Япроқларига тикилиб бир ой ётдим! Бир ой Худога илтижолар қилдим! Мўъжиза рўй берди, укажоним, мўъжиза: қайрағоч барг ёзди! Отам эккан қайрағоч кўкариб кетди! Ҳозиргача кўкариб турибди! Бу йил олтмиш бир ёшга кирди қайрағочим!

Отам ғалати табиатли инсон эди. Адирда ер

очиш, боғ қилиш билан қишин-ёзин овора бўларди. Битта дарахти кўкарса ёки гулласса, у раҳматлига байрам эди. Учраган одамни қучоқлаб олиб ўпарди, «Кўкарди, гуллади!» дея ҳаяжонини босолмасди. Қуриган, синган дарахтларни кўрса, чиройли қилиб, арра билан ғўла қилиб кесарди, қишлоққа олиб келиб, уйма-уй юриб тарқатарди. Одамлар унинг бу феълени кўриб «Девонароқ-да», деб қўйишарди. Лекин отам бунга асло эътибор қилмасди. Охирги еттита ғўла тарқатилмай қолиб кетди. Етти дона. Биз етти фарзанд эдик: уч ўғил, тўрт қиз. Отам тўсатдан қазо қилди. Қишлоққа газ келди — ёқилмай қолиб кетди. Отамнинг қўли теккан ғўлалар!

Қишлоққа боришимни эшитишган, укаларим ана шу ғўлаларни омбордан олиб чиқиб, отам эккан қайрағоч остига териб қўйишади. Уларга ўтира-миз. Тепамизда отам эккан қайрағоч, япроқлари қўшиқ айтади.

Бу йил баҳорда борсам, қайрағочнинг остидан янги ниҳоллар ўсиб чиқибди! Етти дона! Биттасини сенга бераман — отам эккан қайрағоч Фарғонада ҳам кўкарсин! Ҳе, боғингга булбул!

Курбон аканинг ҳикоясини тинглаб, манзилга етганимизни ҳам сезмай қолибмиз. Эшик оғзида кутиб олувчиларни кўриб, кўнглим кўтарилди. Амаким, акам, укаларим... Уларнинг сафида маҳалла оқсоқолини кўриб биров ажабландим, йўл-йўлакай киргандир-да, деб унча парво қилмадим.

Ўтириш яримламай, оқсоқол мени четга тортди.

— Чинорни кесмоқчи эдик, Мухтор ака сендан рухсат сўраш кераклигини айтди, — деди чинор томонга ишора қилиб. — Масжиднинг полига тахта



ҲИКОЯ

қилишмоқчи...

Мен ҳамон Курбон ака ҳикоясининг таъсирида эдим.

— Кесаверинглар! — дедим алам билан.

— Биздан яшириқча нима гаплар бўляпти? — ҳазил аралаш оҳангда сўради Курбон ака амаким билан сўзлашганча бизга яқинлашаркан.

— Бунинг дадаси раҳматли, — амаким тушунтира кетди, — қабристон атрофига Андижондан яқин беш юз туп чинор олиб келиб эктирганди. Азбаройи қабристонни обод қилиш учун. Чинорлар буюм бўлгач, масжид кураминз дейишиб, маҳалла эҳтиёжи учун кесиб ишлатиб юборишди. Дадасидан эсдалик бўлиб, битта, бир донагина чинор қолди масжид ҳовлисида! Шуни чоллар, «Экканга ҳам савоб, кесганга ҳам савоб», дейишиб, масжидга пол қилишмоқчи!

— Чинор кесилмайди!

Бу рухсат берса ҳам, — ака менга қўлини бигиз қилди, — мен рухсат бермайман! Кесган одамнинг калласини оламан! Шундай деб айтиб қўйинглар ўша чолларинг! Бу гапни ким айтди деса, отасининг қайрағоччи бор Курбон чинорий айтди денглар!

Биров бир сўз демади. — Чинорни кесаверинг-

лар дейсан?! — ака менга яна юзланди. — Отангнинг қўли теккан чинорни-я! Юртим дейсан, ватанпарварлик деб кўрагингга урасан, кесаверинглар эмиш! Сен томошабин бўлиб тураверасан! Тўрт юз тўқсон тўққизтаси кесилиб кетибди, сен қараб туравердингми, қанақа ўғилсан ўзи!? Бундай бузғунчилар, бугун чинорни кесишадди, эртага отанг қурган иморатни портлатишади, индинга отанг ётган қабрни қовлаштиришни бошлашадди! Қарабсанки, отангдан ном-нишон йўқ!

Сигаретни чуқур-чуқур тортдим, аммо Курбон аканинг кўзига қаролмадим.

Ака поли чала-чулпа артилиб, деворда осилган гилам олиниб, ерга солиниб, устига уч-тўртта кўрпача ташланган — биз меҳмонларга аталган хонага кириб кетди.

Мезбонлар билан шунчаки хайрлашдик. Хонага кирганимда Курбон ака ухламагани: тескари томонга ўгирилиб, кўрпани устига тортди.

— Бирор нарсга керак эмасми? — деб сўрадим.

— Дарсингни қилдингми? Ухла! — деди саволимга жавобан.

Ухладим. Тушимга Чингиз оғанинг «Биринчи муаллим»идаги қўш дарахт кирибди. Улар шамолда

тебраниб, чапак чаларди. Лекин дарахтларнинг қарсақлари мени масҳара қилаётгандай эди.

Эрталаб Курбон акани ҳовлидаги арчага тикилганча чўнқайиб ўтирганини

кўрдим. Ёнида укаларим.

— Мана шу томонда кимнинг уйи бор? — сўради у қўли билан ишора қилиб.

— Мени, акамни, — укам жавоб қилди.

— Энди мана бу арчага қара, — Курбон ака укамга ишора қилди. — Шохларига қара — бармоқларга ўхшайдими? Арча қучоғини ёзиб сизлар томонга талпинаётганга ўхшамай-дими?

Арчага хайратланганча тикилиб қолдик. Дарвоқе, арча ака айтган ҳолатда турарди. Биз сўзсиз эдик.

— Отанглар, «Ўғилларим, мени унутмадиларингми? Сизларни жуда-жуда яхши кўраман!» демаяптими? — деди яна Курбон ака.

— Деяпти! — деди укам юзига юмалаган ёшни артаркан.

— Шу арчанинг бир япроғи узилса, битта шохи синса, унга бир гард юкса — отангнинг юзига лой чаплаган, номини унутган бўласанлар — ота эккан дарахт бу! Оталаринг бу! Чинор билан арча сизларнинг биродарларинг, укаларинг. Уларни ҳам оталаринг эккан! — Курбон ака ҳар бир сўзини таъкидлаб айтди-да, нари кетди.

Биз — ака-укалар, мезбонлигимизни ҳам унутиб, арчага тикилганча узоқ туриб қолдик.

Саид АНВАР



Muassis:

Toshkent Viloyati Chirchik Shahar
HOKIMLIGI



“Chirchiq tongi” gazetasi tahrir hay’ati:

Murodjon ABDURAHIMOV
(tahrir hay’ati raisi)

G’afurjon MUHAMEDOV
Ibrohim HASANOV
Saodat MUSAYEVA
Iltom ASADOV

Bosh muharrir:

Iroda MUHAMMAZIZOVA

Gazetaga 1932-yilda asos solingan

2011-yil 22-avgustda Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 03-024 raqam bilan ro’yxatga olingan

Manzilimiz: 111700,

Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 1-uy, 409, 410, 411 va 412-xonalar

Adadi: 3000 nusxa.

Hajmi - 1,5 bosma taboq.
Qog’oz bichimi A-3. Ofset usulida bosilgan. Bahosi kelishilgan narxda
ISSN 2181-7170

Telefonlar:

Qabulxona:

71-71-5-36-40.

E’lonlar va hisob-kitob bo’limi:

71-71-5-00-14

Nashr indeksi: 64694

Topshirish vaqti: 13.00.

Topshirildi: 14.00.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida

Xatira YUSUPOVA

tomonidan sahifalandi

Navbatchi:

Malika Riskidinova

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Reklama materiallaridagi dalillar va faktlarga tahririyat javobgar emas

«NISO NASHRIYOT VA

MATBAA UYI» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili:

Toshkent viloyati, O’rta Chirchiq tumani,

Mash’al mahallasi, Markaziy

ko’cha, 1-uy.

Buyurtma №

САМИИЙ ҚУТЛОВЛАР

“Махам-Чирчиқ” АЖ бошқаруви ва касаба қўмитаси меҳнат фахрийлари Джумабаев Иргаш Сатанович 85, Фукс Нина Ивановна 80, Раймкулова Галина Иргашевна 75, Мирзаева Мухаррам Ориповна, Алтыбаева Фарида Булатовна, Касимов Сабирджан Умарович ва Кривобокова Нина Георгиевналарни 70 ёшлари билан самимий қутлайди ва уларга сиҳат-саломатлик, оилавий осойишталик ҳамда шоду хуррамлик тилайди.

РАССОМ ХАНДАСИ



“МУШТУМ”дан олинди

Чирчиқ шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус томонидан 2025 йил 27 январда Токарев Владислав Леонидович номига расмийлаштирилган R-202501949000087-рақам билан қайд қилинган қонун бўйича меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳнома йўқолганлиги сабабли **бекор қилинади**.